



XORIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

UVAYSIYNING MUXAMMAS BOG'LASH MAHORATI

Novruzova Nozima Norqulovna
SamDU filologiya fakulteti, tayanch doktoranti
nozimanavruzova91@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15183628>

Annotatsiya: Ushbu maqolada Qo'qon adabiy muhiti shoirasi Uvaysiy lirikasi, unda muxammas janrining takomili, Navoiy g'azallariga bog'lagan muxammaslari va ulardagi mavzu, obraz, vazn va badiiy san'atlarning o'zaro uyg'unligi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: g'azal, muxammas, taxmis, vazn, mavzu va obraz.

Qo'qon adabiy muhitida o'ziga xos o'rin tutgan shoira Jahon otin Uvaysiy mumtoz adabiyotimizga o'zining benazir hissasini qo'shgan va uni har jihatdan boyitgan ijodkorlardan sanaladi. Shu davrdan boshlab mumtoz adabiyotimiz sahnasida Uvaysiy bilan bir qatorda bir qancha shoirlar paydo bo'ldi va o'zbek mumtoz adabiyotimizda shoirlar ijodiyoti boshlandi. Qo'qon adabiy muhitida bu davrda g'azaldan keyin mukammal va ko'p yozilgan janr muxammas ekanligi sabab bo'lsa kerakki, Uvaysiy ham ijodida g'azal, musaddas, muxammas janrlariga ko'proq diqqat qaratgan.

Muxammas har bir bandi besh misradan iborat janrdir. Muxammas g'azal zaminida yuzaga kelgan she'riy janrlardan bo'lganligi sababli aruz bahrlarining turli vaznlarida yozilgan.

Mumtoz adabiyotimizda muxammas 2 xil usulda yaratilgan:

1. Mustaqil (tab'ixud) muxammaslar;
2. Taxmis muxammaslar.¹

Qo'qon adabiy muhitida muxammas yozishning har ikki turi ham ommalashgan. Bu davr ijodkorlari mustaqil muxammaslar bilan birga salaflari ijodiga chuqur qiziqish va hurmat bilan taxmislar bog'laganlar. Tabiiyki, bir ijodkorga ergashib, unga taxmis bog'lash ijodkordan katta mahorat va tayyorgarlik talab qiladi. Chunki biror g'azalga muxammas bog'lash uchun shoir shu g'azal mavzusi bilan birga g'azal muallifining ijodi va, ayniqsa, uslubini ham chuqur o'rganishi, badiiy tafakkur va she'riy san'atlar yaratishda mahorat jihatdan u bilan tenglasha olish darajasida bo'lishi lozim. Bu qaysidir ma'noda ijodkorning o'z mahoratini sinab ko'rish, o'ziga bo'lgan ishonchni ko'rsatish uchun imkonidir. Taxmis muxammasda ijodkor ham g'azal muallifining, ham o'zining badiiy-g'oyaviy fikrlarini, uslubini, bundan tashqari, shakl jihatdan vaznini ham uyg'unlashtirishi lozim. Aks holda, g'azalda

¹ Орзибеков Р. Ўзбек лирик поэзиясида ғазал ва мусаммат. – Т.: Фан, 1976, 105-бет.



XORIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

ochib berilmoqchi bo'lgan fikr ko'lami va badiiy xususiyatlari taxmis muxammas bilan bog'lana olmasligi mumkin. Chunki taxmis muxammas har jihatdan g'azaldan mukammal bo'lmog'i, g'azaldagi mavzu g'oyasini kengaytirmog'i va yangi bosqichga chiqarmog'i lozim. Shundagina taxmishi ijodkorning poetik mahorati namoyon bo'ladi.

Uvaysiy devonidan mustaqil muxammaslar nilan birga taxmislar ham talaygina joy olgan. Ularning har biriga e'tibor berilsa, badiiy jihatdan mukamal asarlar ekanligiga guvoh bo'lamiz.

Shoira ijodida Navoiy, Amiriy, Fuzuliy, Vazir, Jomiy kabi ijodkorlar g'azallariga ergashib yozilgan muxammaslar mavjud. Bu esa Uvaysiyning salaflariga bo'lgan hurmat va e'tibor yuqori ekanligini ko'rsatadi. Ayniqsa, Navoiy g'azaliga taxmis bog'lash uchun ijodkordan katta kuch talab qiladi. Uvaysiy esa o'zida mana shu kuchni topa olgan.

Uvaysiy devonidagi "Jon ila vasfin kitobig'a bo'lur sheroza ruh..." (Devon, 93-bet), "Men xastai zoringni biror aylamading yod..." (Devon, 104-bet), "G'unchani yod aylamakda yor gulzoring g'araz..." (Devon, 152-bet), "Ishq irshodi erur avroqi dilbar topsa xat..." (Devon, 156-bet), "Yig'lamay ko'z abri doim o'tti xandonlig'da hayf..." (Devon, 165-bet), "Bo'ldi bul kun menga sarvi xiromon o'tru..." (Devon, 234-bet)² muxammaslar Navoiy g'azallariga bog'lab yozilgan taxmislardir.

Uvaysiy taxmis bog'lagan Navoiyning "g'araz" radifli g'azaliga e'tibor qaratadigan bo'lsak, g'azalda ishq mavzusi bilan birga falsafiylik ham yetakchilik qiladi:

Ey quyosh, vasfin demakdin mohi ruxsoring g'araz,
Obi hayvon zikridin la'li shakarboring g'araz.³

Navoiy yorni "quyosh" deb atashdan boshlashi istiora san'atining namunasi sanaladi. Shoir yorni quyosh deyishga ham qoniqmasdan, shu misraning o'zida yorning ruxsorini tunni yorituvchi oyga qiyoslaydi. Bu sharq mumtoz adabiyotimizda uchraydigan tashbehlardan sanaladi. Uvaysiy esa taxmisini "g'unchani yod qilish uchun yorning gulzori maqsad" degan tashbehlar bilan boshlaydi:

G'unchani yod aylamakda, yor, gulzoring g'araz,
To'tidin dam urmakim lazzatli guftoring g'araz.
Kim qaribi ul harimidur sazovoring g'araz,
Ey quyosh, vasfin demakdin mohi ruxsoring g'araz,
Obi hayvon zikridin la'li shakarboring g'araz.⁴

² Увайсий. Девон. – Т.: Фан, 1959.

³ Алишер Навоий. МАТ.5-том. Бадойеъ ул-васат. – Тошкент: Фан, 1990., 208- б.



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

Uvaysiy qo'shgan uch misra Navoiy baytini ma'lum ma'noda har jihatdan boyitgan va shoir aytmoqchi bo'lgan fikrlarni yanada oydinlashtirgan.

7 baytli g'azalga shoira bog'lagan taxmis ham 7 banddan iborat. Keyingi bandlarda ham shoira baytlardagi fikrga hamohang fikr ulashib ketgan. Navoiy Farhod va uning mashaqqatdan ezilgan jismini qalamga olgan bo'lsa, Uvaysiy esa Manjun va Vomiqlarning ishq dardini ham eslatib o'tishni joiz deb bilgan. Har ikkala ijodkor ijodida ishq mavzusi yetakchilik qiladi va ular turli misollar bilan bu tuyg'uning naqadar noyob va go'zal ekanligini ijod namunalarida ochib berishgan. Oltinchi baytda Navoiy yorni quyoshga, o'zini esa zarraga o'xshatadi. Uvaysiy esa baytdagi ishq ilohiyni kuchaytirish maqsadida o'zini Mansur Xalloyga tenglashtiradi va o'z ahvolining Navoiydan ham nochor ekanligini ifodalash maqsadida o'ziga "charxning ostida ezilgan" deya ta'rif beradiki, bu shoiraning yuksak mahorat sohibasi ekanligidan dalolat beradi:

Necha mendek charxning ostida afgor etmaging,
Necha mendek Mansuri Xalloyni dor etmaging.
Ishq savdosi bila rasvoi bozor etmaging
Ul quyoshqa, ey falak, men zarrani zor etmaging
Zarrai maqsud yo'q juz, bizga ozoring g'araz.

Uvaysiy o'zini "Anal Haq" (Men Xudoman) g'oyasi bilan tanilgan Mansur Xalloyga o'xshatishi tasavvufda ular bilan bir tariqatda ekanligini ko'rsatadi. Navoiyning ham naqshbandiya tariqatidan ekanligiga e'tibor qaratsak, Uvaysiy bilan mohiyatan ayni tariqat vakillari bo'lishganini va bu ijodiy o'xshashlikni yuzaga keltirganini ko'rsatadi. Uvaysiyning naqshbandiya tariqatiga bo'lgan e'tibori haqida shoiraning boshqa ijod namunalarida ham bir necha bor duch kelganmiz.

Bandning oxiriga kelib shoira o'quvchiga taxmisning yakunlanganligi ruhiyatini singdiradi. Ya'ni shoira yuzining xazon yaprog'i yanglig' sarg'aygani tashbehini Navoiyning umrga "vafosiz" deya bergan tashbehiga bog'laydi va mazmun jihatdan bir butunlikni hosil qiladi. An'anaga muvofiq, taxmisning so'nggi bandida avval taxmischining taxallusi va so'ngra g'azal muallifining taxallusi keltirilgan:

Ey dilo, sen shikva qilma charxdan Tengri o'zi
Ishq eli mavtig'a zohir o'ldi ul qotil ko'zi
Demading, mahvash xazon yafrog'idek Vaysiy yuzi
Ey Navoiy, umr borinda vafosizliq so'zi
Kim bu so'z mazkur erur shaxdi shakarboring g'araz.

⁴ Увайсий. Девон. – Тошкент: Фан, 1959.152- 6.



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

G'azal aruzning "ramali musammani mahzuf" vaznida yozilgan. Shu jihatdan taxmis ham xuddi shu vaznda yozilgan bo'lib, bu vazn aruzdagi eng o'ynoqi vaznlardan sanaladi. Taqtesi:

foilotun foilotun foilotun foilun

- V - - / - V - - / - V - - / - V -

Ham vaznga, ham mazmunga moslab ijod hosil qilish, tabiiyki, murakkab jarayon va bu ijodkordan katta mas'uliyat talab etadi. Ammo Uvaysiy buning uddasidan chiqqan ijodkorlardan. Bunga uning boshqa taxmis muxammaslarida ham guvohi bo'lamiz. Navoiy ijodidagi singari Uvaysiyda ham ishqi ilohiy kuylanadi. Bu biz ko'rib o'tgan g'azal va taxmisda ham maromiga yetkazib bitilgan.

Tahlil xulosasi shuni ko'rsatadiki, Uvaysiyning tab'ixud muxammaslari ham, taxmisleri ham har jihatdan yetuk asarlardir. Shoiraning Navoiy, Amiriy, Fuzuliy, Vazir, Jomiy kabi shoirlar g'azaliga bog'lagan taxmislarida ham uning badiiy salohiyati yuqori ekanligi ko'zga tashlanadi. Xususan, Navoiy g'azaliga bog'langan "g'araz" radifli taxmis g'azalni badiiy-g'oyaviy, uslubiy, falsafiy jihatdan to'ldirdi va boyitdi. Qaysidir ma'noda, Navoiy bilan "bellashuv"ga chiqqan shoira o'zining badiiy maqsadini ifodalay oldi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Увайсий. Девон. – Т.: Фан, 1959.
2. Увайсий. Девон. – Т.: Ўзбекистон бадий адабиёт нашриёти, 1963.
3. Увайсий. Кўнгил гулзори. – Т.: Ф. Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1983.
4. Алишер Навоий. МАТ.5-том. Бадойеъ ул-васат. – Тошкент: Фан, 1990., 208- б.
5. Орзибеков Р. Ўзбек лирик поэзиясида ғазал ва мусаммат. – Т.: Фан, 1976.